

2 – SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR

**A.QODIRIYNING “O’TGAN KUNLAR” ROMANI ASOSIDA YOZILGAN O’ZBEK  
OPERASI “KUMUSH” VA USHBU OPERANING PREMYERASI TO‘G‘RISIDA.**

**Shoto‘rayev Beg‘am Ergash o‘g‘li**

*Toshkent shahar Olmazor tumani R.Glier nomidagi*

*RIMM ning katta o‘qituvchisi.*

**Jalilova Kamola Shuxratjon qizi**

*A.Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri xormeyster yordamchisi.*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada O‘zbek milliy operasi “Kumush” haqida, uning premyerasi va ijodkorlari to‘g‘risida fikr-mulohazalar olib borilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Opera, kamer-cholg‘u, milliy simfoniya, libretto, dramaturgiya, spektakl, rejissor, dirijor, xormeyster,*

O‘zbekistonda opera janri 30-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab vujudga kela boshladi. Bular S.Vasilenko va M.Ashrafiylarning “Bo‘ron” operasi bilan R.Glier va T.Sodiqovlarning “Layli va Majnun” operalari edi. O‘zbek operasining dunyoga kelishi bu zamon talabi bo‘lib respublikamizning madaniy rivojiga yana bir katta qadam hisoblanadi.

Ushbu yo‘ldagi izlanishlar va ijod mobaynida bir qator operalar sirasida M.Tojiyevning “Kumush” operasi dunyoga keldi. M.Tojiyev o‘zbek milliy simfonik va kamer-cholg‘u musiqasi rivojiga hissa qo‘shtigan XX asr yirik o‘zbek kompozitorlaridan biridir. Ajoyib iste’dod sohibi simfonik musiqa sohasida jahon yutuqlarini o‘zbek milliy musiqasi zaminida ijodkorona tadbiq etishga erishdi va milliy simfonik maktab yaratishga muvaffaq bo‘ldi.

M.Tojiyevning “Kumush” lirik-fojiaviy operasi 1988-yilda A.Qodiriyning (1894-1938) asari asosida yaratilgan, ammo 80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida bir qancha sabablarga ko‘ra operaning sahnalaشتirish ishlari noma’lum muddatga qoldirildi.

2017-yil noyabrida A.Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri ishchi jamoasi tomonidan M.Tojiyevning “Kumush” operasini sahnalaشتirish ishlari boshlandi. Sahnalashtirish uchun Marinskiy teatri rejissori Erkin Gabitovni taklif qilishdi. Rejissor o‘z ishchi guruhi bilan birgalikda libretto va musiqiy materialni mumtoz opera dramaturgiyasi va zamon talablariga mos ravishda qayta ishlashga kelishib olishdi. Rejissorlar avvalgi sahnaliy voqealar maqbulini o‘zgartirish va A.Qodiriy romanidagi ishq mavzusiga ko‘proq e’tibor qaratish xususida kelishib olishdi. Shu asnoda bosh qahramon – Kumushning yorqin ayol qiyofasi ham ko‘zga tashlandi.

Adabiy materialning yangi nashri teatr rabbariyati taklifi bilan A.Qodiriy oilasi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim tomonidan yozildi. Mirsodiq Todjiyevning g‘oyasi va musiqiy materiali asosida sahnalaشتiruvchi rejissor Erkin Gabitov va kompozitor Mirhalil Mahmudov bilan birgalikda yozuvchi operaga yangi

libretto tayyorladi. 30 yil ilgari o‘ylangan operaning taqdiri oson kechmadi. Operaning yangi musiqiy material talqinini Mirhalil Mahmudov yozgan.

“Kumush” operasining opera spektakli sahnalashtiruvchi rejissori Rossiyada xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Erkin Gabitov o‘zbek madaniyati bilan yaxshi tanish bo‘lgan. U Sankt-Peterburgda yashasa ham, Leningrad konservatoriyasini musiqa teatri rejissorligi mutaxassisligini tamomlagan bo‘lsa ham, o‘z tug‘ilib o‘sgan shahri Toshkent rejissor hayot yo‘li bilan chambarchas bog‘liq. U Qozog‘iston va Rossiya teatrлari opera sahnalashrish ishlarida katta tajribaga ega. 2018-yil A.Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrida A.Rubinshteynning “Demon” operasini sahnalashtirdi. Erkin Gabitov yangi sahnaviy uslub vaqtি keldi deb hisoblaydi va ijodida o‘z ishslash tamoyiliga ega.

“Kumush” operasi rang-barang, jo‘shqin va o‘ta ta’sirchan. O‘zbek tilida ijro qilingan. Lekin bu faqat o‘zbek tilida so‘zlashuvchi va bu tilni biluvchi ommagagina qiziq degani emas. Biz operalarni italyan, fransuz, nemis, ingliz tillarida tinglaymiz va bizga ularning tili emas ma’nosи muhim. Musiqiy dramaturgiyada va sahna harakati ijrochilarining badiiy iste’dodi bilan qo‘shilib ajoyib uyg‘unlik hosil qilgan. Tomoshabinlar asarning syujetidan habardor bo‘lmasdan turib ham keying bo‘ladigan voqealar rivojini intiqlik bilan kutishadi. Juda mohirona ijro etiladigan vokal ijrosi tarjimasiz ham yuraklarga yetib boradi va milliy an’anaviy bezaklar bilan bezatilgan sahna tinglovchilarni aynan shu davrga turshib qolishlarini ta’minkaydi.

Otabek va Kumushning o‘tgan kunlari va sevgi hikoyasi, biri biriga bo‘lgan muhabbatining qanchalik kuchliligiga tarif berish operaning muvaffaqqiyatlaridan biri bo‘ldi. Sevgi – hatto o‘z xohishi bilan umr yo‘ldoshini tanlash huquqidан ham mahrum bo‘lgan yosh ayolni misoli jangchiga aylantiradi. U nohaq ayblangan suyuklisini himoya qilishdan qo‘rqmadi. Ammo bu og‘ir vaziyat ikki yoshning baxtiga to‘g‘onoq bo‘ladi. Sharqona urf-odatlar bilan yo‘g‘rilgan, bizning xalqimiz uchun muhim bo‘lgan nikoh dramatik vaziyatga sababchi bo‘ladi.

Libretto muallifi va rejissor A.Qodiriy romanida keltirilgan fojiani ( Kumush zaharlangan, Zaynab aqldan ozgan, Otabek uyini tashlab jangda halok bo‘ladi) biroz yumshatgan. Ammo opera tinchlik bilan tugaydi, bosh qahramon finalda o‘g‘li bilan oilasi davrasida qoladi. Drama melodramaga aylanadi.

Teatr truppasidagi ijrochilarining iqtidori olqish va maqtovlarga sazovordir. Bu iqtidorlari sababli ular o‘z rollarini mohirona ijro qilibgina qolmay o‘zbek milliy operasini butun dunyoga tarannum etishadi. Opera premyerasida Malika Normatova (Kumush) va Rustam Alimardonov (Otabek)lar bosh qahramonlarni ijro qilishgan. Yakkaxonlarning ariya va duetlari bir-necha bora tomoshabinlarning olqishiga sabab bo‘ldi. O‘zgacha yoqimli, muloyim va iliq tembriga ega bo‘lgan (lirik-dramatik soprano) Malika Normatovaning ijrosi bosh qahramon siymosini chiroyli tarzda ko‘rsatib berdi. U chuqur talqin qilgan Kumush obrazida o‘zining badiiy va vokal qobiliyatini to‘la namoyon etdi.

Boshqa ijrochilar ham qizg'in olqishlarga sazovor bo'ldi: Aminzoda Jumaniyozov (Hamid), Nosir Yusupov (Xasanali), Mahmud Ro'ziyev (Mirzakarim Qutidor), Jabrail Idrisov (Yusufbek Hoji), Mehriddin Meliyev (Qushbegi). Orkestr ijrosiga to'xtaladigan bo'lsak opera spektaklining musiqa rahbari va dirijori sifatida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Fazliddin Yoqubjonov ish olib bordi. Ammo premyerada amaliyotchi, debyutant dirijor Kamoliddin Azimov orkestr pultiga chiqgan va ta'kidlash joizki, yosh dirijor simfonik orkestrning ijrochilik yo'nalishi va asarning milliy musiqiy tuzilmasining nozik lirkasini tomoshabinlarga yetkazgan holda o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani munosib uddalagan.

Har doimgidek xor (Bosh xormeyster – O'zbekiston xalq artisti Sulaymon Shodmonov) spektaklga to'liqlik, ohangdorlik bergen.

Rejissor O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Zubaydullo Botirov ijrosidagi sahnalashtirish ishlari muvaffaqqiyatli yakunlandi va u sahna ko'rinishini intermedia pardasidagi oq-qora fotosur'atlar bilan to'ldirdi.

Spektakl A.Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri qoshidagi "Tumor" ansambl artistlari ijrosidagi raqlari bilan yorqin ko'rinish aks etadi. Xoreografi – Charos Jo'rabyeva.

"Kumush" operasi ikki parda, olti ko'rinishdan iborat. Birinchi parda, birinchi ko'rinish. "Navro'z". Marg'ilonda Navro'z bayrami. Xalq yig'ilgan, masxaraboz, dorbozlar kelgan. Hamma bir birini tabriklamoqda. Otabek Toshkentdan savdo qilish uchun keldi. Notanish odamni ko'rgan Hamid va Rahmat uni kimligini va qayerdanligini bilish uchun unga yaqinroq boradilar. Olamon ichida Otabek Kumushni ko'rib qoladi va unga oq ro'mol sotib oladi. Ro'molni esa masxaraboz orqali yuboradi. Kumush esa bu sovg'ani xursand bo'lib qabul qiladi. Hamid ham Kumushga ro'mol jo'natadi, lekin bu safar sovg'ani qabul qilmaydi. Hamid g'azab bilan Otabekka qaraydi.

Ikkinchi ko'rinish. "Uchrashuv". Qutidorning uyi. Hamid qucidorning uyi atrofida ancha paytgacha Kumushni poylab turadi keyin esa ketadi. So'ngra Kumush suv olish uchun chiqadi, suvdagi aksiga qarayadi va sovg'a qilingan ro'molni olib xotiralarni eslaydi. Bu paytda esa Otabek daraxt orasida uni poylab turgan bo'ladi. Kumush buni sezib qoladi va qochib ketadi, ro'mol esa tushib qoladi, Otabek ro'molni qo'liga oladi. Bu manzarani chetdan kuzatib turgab Xasanali nima bo'lganini tushunib, yana paydo bo'lgan Hamiddan qiz va uning oilasi haqida bilib oladi va Otabekni Kumush bilan turmush qurishini taklif qiladi. Uchinchi ko'rinish. "To'y". Mirzakarim qucidorning uyi. Qizlar yig'ilgan. Kumush esa bu to'ydan xursand emas. Uning hayoli faqatgina ro'mol sovg'a qilgan yigitda edi va uni boshqa ko'ra olmasligini o'ylab siqilar edi. Uyga Otabek do'stlari bilan birga kirib keladi va ikkala yoshlarni yolg'iz qoldirishadi. Kumush boshini ko'tarmagan holatda Otabek ro'molni ochadi qarshisida esa uning muxabbati turar edi. Bu vaqtida esa eshik oldida g'azabdan yonib, dovdirab qolgan Hamid turar edi. Endi u raqibidan qasos olish haqida o'ylar edi.

To‘rtinchi ko‘rinish. “Sud”. Qushbegi o‘z kabinetida, kotib Pirmat, va shaxarning boshqa oliyjanob odamlari yonida o‘tirar edi. Uning qarshisida qo‘llari bog‘langan Otabek bilan Mirzakarim qutidor tiz cho‘kib turibdi. Qushbegi ularni qo‘zg‘olonda ayblab, hibsga olingani haqida hukm o‘qiydi. Ularni osish orqali o‘limga hukm qiladi. Jallod mahbuslarni olib ketadi. Bu vaqtida esa Pirmatning habar berishicha , bir ayol xat bilan keldi. Qushbegi xatni o‘qib chiqib, hibsga olinganlarni tezroq qaytarishni so‘raydi. Bu xat Toshkentdan kelgan, shu tufayli Otabek va Mirzakarim oqlangan edi. Otabekning otasi qushbegining dushmani va Qo‘qon xoni Azizbekning qilmishlarini qoralaydi. Qushbegi tuxmatchilarni hukm qilishni buyuradi. Otabek bilan Kumush yana birga.

Ikkinci parda, Beshinchi ko‘rinish. “Kelishuv”. Toshkent. Otabekning otasi Yusufbek hojining uyi. O‘zbekoyim hovlida o‘tirar edi. U o‘g‘lini Toshkentdan uylantirish, Marg‘ilonlik qizni umuman yodidan chiqarishi haqida o‘ylagan edi. Yusufbek esa bu holatdan xursand emas edi, Otabek ham ikkinchi marotaba uylanish niyati yo‘q edi. Otabek u qizni yaxshi ko‘rmasligi, uni baxtsiz qilib qo‘yishi haqida onasini ogohlantiradi. Lekin bular uning onasini to‘xtata olmaydi. Bir yil o‘tdi. Otabek Xasanalini Marg‘ilonga Kumush uchun jo‘natadi. O‘zbekoyim, Moxira va boshqa ayollar hayrat bilan Kumushni kutib olishadi. Hamma qizning go‘zalligidan hayratda edi. Faqatgina Zaynab xursand emas, raqibini opa-singildek kutib olgan Kumushdan farqli ravishda majburan tabassum bilan kutib oladi. Xasanali yoshlarning uzoq ayriliqlaridan habardor, ular uchun uchrashuv tashkil qiladi. Sog‘inib bir birlarini quchog‘iga otiladi. Kumushning ko‘zları baxtdan porlaydi. Zaynab har kuni erining Kumushga bo‘lgan muhabbatidan aqldan ozganini, rashkdan yonayotkanini ko‘radi va Kumushni zaharlamoqchi bo‘ladi.

Oltinchi ko‘rinish. “O‘lim”. Baland quvnoq ayollarning hayqiriqlari eshitiladi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqning yig‘lashi ayniqsa azon ovozi bilan tantanali eshitiladi. Shoshib Kumushning xonasiga boradi va kosa ko‘tarib kelayotkan Zaynabga ko‘zi tushadi. U uni o‘g‘illi bo‘lgani bilan hayajonli tabriklaydi. Otabek uni sarosimaga tushib qolganini payqab sababini so‘raydi. Ammo Zaynab Kumushning bolasidan havotirda ekanini, azob chekkanini aytadi. Otabek hayron bo‘ladi, chunki onasi tug‘ish oson bo‘lganini aytdi. Zaynab Kumushga ovqat berish erkaklarning ishi emasligini aytadi, lekin o‘zi Kumushning ovqatiga zahar solishga qaror qiladi. Kumush holdan toygan, Oybaldoq esa uning oldidan ketmaydi. Kumushni tekshirgani shifokor keladi. Gap tug‘ishda emas, boshqa narsada ekanini tushunadi. Qiziq Kumush bugun ovqatlandimi? Ovqat qoldiqlari bormi? Otabek Zaynabning qo‘lida ko‘rgan kosani tabibga beradi. U barmoq uchida kosadagi ovqat qoldig‘ini tatib ko‘radi, keyin zahar borligini aytib, darxol tupuradi. Otabek Zaynabga “ Taloq, taloq, taloq” deb baqiradi. Yusufbek uni la’natlaydi. Aqli yo‘qolgan Zaynab o‘zini Kumush deb, Otabekning oldiga yuguradi. Uni xaydab yuborishadi. U aqldan ozadi. Kumush alam ichida. Otabek undan uni

2 – SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR

tashlab ketmaslikni so‘raydi, chunki usiz hayot u uchun ma’no yo‘q, lekin Kumush o‘ladi. Otabek o‘g‘lini bag‘riga olib, yolg‘iz emasligini tushunadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. История узбекской музыки. I.II томлар. Toshkent. 1972,1973.
2. T.Y.Solomonova. “O‘zbek musiqa tarixi” Toshkent. 1981.
3. Пеккер Я.Б. “Узбекская опера”. От возникновения до конца 60-х годов XX века. М., 1984.
4. Т Визго. Опера А.Козловского “Улугбек” сборник статей. Toshkent. 1961.
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (ikkinchi jild). Т., 2000-2006 y.